



XALQ DEPUTATLARI KATTAQO'RG'ON SHAHAR KENGASHI QARORI

2022 - yil 29 - aprel

VI-56-85-7-106-K/22

Kattaqo'rg'on shahar hokimligi

Kattaqo'rg'on tumanlararo iqtisodiy sudi faoliyatining 2022-yilning 1-choragi davomida odil sudlovni amalga oshirish borasidagi ishlari yuzasidan axboroti to'g'risida

Kattaqo'rg'on tumanlararo iqtisodiy sudining 2022-yilning 1 choragi davomida odil sudlovni amalga oshirish borasidagi ishlari yuzasidan axborotini tinglab, "Mahalliy davlat hokimiyati to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonunining 24-moddasiga asosan, xalq deputatlari shahar Kengashining oltinchi chaqiriq, ellik oltinchi sessiyasi

QAROR QILADI:

1. Kattaqo'rg'on tumanlararo iqtisodiy sudi raisi Y.Norbekovning 2022-yilning 1 choragi davomida amalga oshirgan ishlari to'g'risidagi axboroti ma'lumot uchun qabul qilinsin.

2. Kattaqo'rg'on tumanlararo iqtisodiy ishlar sudi (Y.Norbekov)ga:

- iqtisodiy sudda nizolarni hal qilishda sudgacha kelishuv bitimi yoki nizolarni hal qilishning muqobil usullarini tuzishga erishish, bunda hakamlik sudi va boshqa institutlar bilan hamkorlik aloqalarini kengaytirish choralari ko'rish;

- eng ko'p uchrayotgan mulk huquqi bilan bog'liq nizolar yuzasidan chiqarilgan qarorlarga tushuntirish berish, bunday tushuntirishlarni ommaviy axborot vositalari orqali jamoatchilikka yetkazish tavsiya etilsin.

3. Xalq deputatlari shahar Kengashining Sud-huquq masalalari va

korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (N.Petrova) shaharda sud organlari tomonidan sud tizimida odil sudlovni ta'minlash borasidagi ishlarning ahvoli, muammolar va istiqboldagi vazifalar yuzasidan masalalarni doimiy komissiyalar qo'shma yig'ilishlarida muhokama etib borsin.

4. Kattaqo'rg'on tumanlararo iqtisodiy sudi (Y.Norbekov) shahar Mahalla va nuroniylarni qo'llab-quvvatlash bo'limi (A.Raxmonov), shahar Prokuratura bo'limi (F.Egamqulov) hamda shahar Adliya bo'limi (F.Zarifov) bilan birgalikda mahallalarda aholining huquqiy madaniyatini oshirish maqsadida targ'ibot ishlarini olib borsin.

5. "Kattaqo'rg'on tongi" gazetasi (T.Xamidov) sud organlari tomonidan odil sudlovni ta'minlash borasida amalga oshirilayotgan ishlarni keng yoritib borish tavsiya etilsin.

6. Mazkur qaror bajarilishini nazorat qilish xalq deputatlari shahar Kengashining Sud-huquq masalalari va korrupsiyaga qarshi kurashish bo'yicha doimiy komissiyasi (N.Petrova) zimmasiga yuklansin.

Kengash raisi



G. Alimova